

AXBOROT AGENTLIKARINING MEDIA MAYDONDAGI O'RNI

Behruz Xurramov

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Xalqaro jurnalistika fakulteti 4-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Munisa Abduraxmanova*

Media maydon – bu turli axborot manbalari va platformalarining yig'indisidan iborat axborot muhitidir. Bu muhitda an'anaviy OAV (gazeta, televideniye, radio) bilan birga, raqamli media (onlayn nashrlar, bloglar, ijtimoiy tarmoqlar) faol ishtiroy etmoqda.

Zamonaviy raqamli media sharoitida axborot agentliklari axborot olish tezligi va aniqligi borasida kuchli raqobatga duch kelmoqda. Har bir yangilik uchun kurash ketayotgan bir paytda, ishonchlilik omili agentliklar obro'sini belgilab beradi. Aynan mana shu jihatdan agentliklar oddiy blog va ijtimoiy tarmoq sahifalaridan farq qiladi. Shuning uchun ham, bugungi kunda axborotlashuv va globallashuv jarayoni avj olgan bir paytda, dunyo miqyosida axborot vositalarini shakllantirish, ularni faoliyatini yaxshilash va eng tezkor va holis axborotlar yetkazib beruvchi agentlik, radio, televideniya, gazeta va internet nashrlariga bo'lgan ehtiyoj har qachongidanda o'sdi. Ayniqsa, xalqaro tashkilotlar yoki qo'shni davlatlar bilan siyosiy-ijtimoiy axborotlarni almashadigan va ular bilan hamkorlik qila oladigan axborot agentliklariga talab esa doimgidanda ortiqroqdir. Har qanday davlat o'zining ichki va tashqi axborot bilan ta'minlab turadigan agentliklari va tashkilotlariga ehtiyoj sezadi va natijada uni shakllantiradi. Albatta, bu tashkilotlar xalqaro tan olingan axborot yetkazib beruvchi agentliklar bilan uzviy ravishda aloqa o'rnatadi. Bu kabi agentliklarga jahon miqyosida Associated Press (AQSh), Reuters (Buyuk Britaniya), TASS (Rossiya) kabi yirik agentliklarni asosiy yetakchi sifatida keltirish mumkin. O'zbekistonda esa "UzA – O'zbekiston Milliy axborot agentligi", "Dunyo" axborot agentligi, shuningdek, nodavlat media subyektlari – "Gazeta.uz", "Kun.uz", "Podrobno.uz" kabilar faol deyish mumkin.

Axborot agentliklari – bu matbuotda nashr etish, radio va televideniya orqali uzatish uchun axborotlarni to'plash va tarqatish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlardir¹³. Ular ommaviy axborot vositalarining asosiy va zaruriy manbalaridan biri bo'lib, yangiliklarni aniq va tezkorlik bilan yetkazish, tahlil qilish hamda ommaga taqdim etish vazifasini bajaradi¹⁴.

Axborot agentliklari ommaviy axborot vositalari (OAV) tizimining asosiy hamda ayro bo'lmagan bo'lagi sanaladi. Axborot agentliklari faoliyati, odatda, axborotni yig'ish, ularni tahlil qilish, so'ngra tahrirlash va tarqatish kabi bosqichlarni o'z ichiga oladigan tuzilmadir. Aslida, axborotlarning qanchalik aniq va sifatliligi aynan axborot agentliklarining samarali faoliyatiga bog'liq bo'lib, biz aynan ushbu vositalar orqali ularning faoliyatiga baho berishimiz mumkin.

¹³ **Ilmiybaza.uz** – "Rasmiy axborot tayyorlash va tarqatish bo'yicha ilmiy-uslubiy qo'llanma". Havola: <https://ilmiybaza.uz/document/rasmiy-axborot-tayyorlash>.

¹⁴ **Milliycha.uz** – "Axborot agentliklari – Milliylik-millat ko'zgusi". Havola: <https://milliycha.uz/axborot-agentliklari>

Axborot agentliklari tarixi va ularning rivojlanish bosqichlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, dastlabki axborot agentliklarining yuzaga kelishi XIX asrga to‘g‘ri keladi. Masalan, 1835-yilda Parijsda Charlz Xavas tomonidan birinchi axborot agentligi tashkil etilgan bo‘lib, u xorijiy davriy nashrlardagi axborotlarni (materiallarni) tarjima qilish hamda ularni Frantsiyaning taniqli bo‘lgan nasharlariga sotish faoliyatini olib borgan. Keyinchalik esa, telegraf texnologiyasining rivojlanishi bilan bu kabi agentliklar keng xalqaro muxbirlar tarmog‘ini tashkil etib, xabarlarni tezda uzatish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Rossiyada birinchi mahalliy axborot xizmati – Rossiya telegraf agentligi 1866-yilda tashkil etilgan bo‘lib, kuzatuvchilariga kuniga 2–3 marta ma’lumot yuborgan¹⁵. AQSHdagi birinchi axborot agentligi esa 1846-yilda AQSHning Nyu-York shahrida beshta gazeta tomonidan tashkil etilgan Associated Press (AP) agentligi hisoblanib, Meksika-Amerika urushi haqidagi yangiliklarni birqalikda yig‘ish va tarqatish maqsadida tuzilgan. Bu hamkorlik yangiliklarni tez va ishonchli yetkazish imkonini yaratgan hamda Associated Press o‘zining betaraflik siyosati bilan tanilgan bo‘lib, Demokratik va Respublikachi nashrlarga birdek xabarlar taqdim etgan¹⁶.

Zamonaviy axborot agentliklari bugungi kunda jamiyatning muhim institutlaridan biri hisoblanadi. Ular nafaqat yangiliklarni tarqatishda, balki ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy jarayonlar haqida axborot berish, axborot xavfsizligini ta‘minlash va jamoatchilik bilan samarali aloqalar o‘rnatishda markaziy rol o‘ynaydi. Axborot agentliklarining rivojlanish tendensiyalari yangi texnologiyalar va kommunikatsiya kanallarining kiritilishi bilan uzviy bog‘liqdir. Internet, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar axborot agentliklarining faoliyatiga yangi imkoniyatlar yaratib, ular orqali yangiliklarni tezkor va ishonchli tarzda tarqatish imkoniga ega bo‘lmoqda. Shuningdek, axborot vositalarining ishonchliligi, yengilligi va dolzarbligi ham jamoatchilik va hukumat o‘rtasidagi kommunikatsiyani kuchaytirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida ham axborot va kommunikatsiya sohasida yetarlicha islohotlar amalga oshirilayotgan bo‘lib, ayniqsa 2019-yil 2-fevralda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” qarori ushbu sohaning rivojlanishida muhim qadam bo‘ldi. Mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasidagi axborot agentliklarini samarali tashkil etish, ularga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va davlatning ochiqlik siyosatini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi davlat va jamiyat o‘rtasida axborot almashish, ommaviy axborot vositalarining sifatini oshirish, axborot xavfsizligini ta‘minlash kabi vazifalarni bajarishda asosiy rol o‘ynaydi.

Zamonaviy axborot agentliklarining rivojlanish tendensiyalari, ularning texnologik yangilanishi va global kommunikatsiya tarmoqlariga integratsiyasi bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. O‘zbekistonning axborot agentliklari uchun qarorlar va qonunlar asosida tashkiliy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda, bu esa mamlakatda axborot

¹⁵ [Ilmiybaza.uz](https://ilmiybaza.uz/) – "Rasmiy axborot tayyorlash va tarqatish bo‘yicha ilmiy-uslubiy qo‘llanma". Havola: <https://ilmiybaza.uz/document/rasmiy-axborot-tayyorlash>

¹⁶ **Associated Press:** https://en.wikipedia.org/wiki/Associated_Press , Smithsonian Magazine – How the Associated Press Got Its Start 175 Years Ago: <https://www.smithsonianmag.com/arts-culture/associated-press-turns-175-years-old-180977462/>

sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtiradi. Shuningdek, axborot agentliklarining innovatsion texnologiyalarni joriy etishi, axborot almashish tizimlarini takomillashtirishi va yangiliklarni tarqatishdagi samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu yangilanishlar nafaqat davlatlar ichidagi, balki global miqyosda ham o‘zgarishlarga olib keladi. Shu bilan birga, axborot xavfsizligini ta’minlash va shaffoflikni oshirish davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, axborot agentliklari global kommunikatsion tizimning ajralmas qismi bo‘lib, jamiyatni ishonchli va tezkor axborot bilan ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bugungi kunda ular faqat an’anaviy OAV bilan cheklanmay, balki raqamli media makonining faol ishtirokchisiga aylangan. Har qanday axborot agentliklari o‘z mamlakatining rasmiy axborot siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda strategik ahamiyatga ega. Ularning faoliyatidagi farq, asosan, texnologik innovatsiyalar, xalqaro hamkorlik va raqamli media vositalaridan foydalanish ko‘lamida kuzatili mumkin. Va unutmaslik kerakki, zamonaviy axborot agentliklari uchun asosiy muammo — yolg‘on va manipulyativ axborot oqimiga qarshi kurashish, axborot ishonchliligi va faktlarga asoslanganlikni ta’minlashdir. Shu bois axborot agentliklari jurnalistik etika, faktcheking va tezkorlik o‘rtasida muvozanatni saqlashga intilishi shart.

Shuni ham aytib o‘tish kerakki, sun’iy intellekt to‘xtovsiz rivojlanayotgani uchun ham kelajakda axborot agentliklarining faoliyati sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (big data), va avtomatlashtirilgan yangiliklar ishlab chiqarish tizimlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi ham mumkin. Shu bois agentliklar o‘z texnologik infratuzilmasini doimiy yangilab borishi, jurnalistlarning malakasini oshirishi va raqamli kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanishi zarur. Umuman olganda, zamonaviy axborot agentliklarining roli tobora ortib bormoqda va ular o‘z faoliyatini doimiy ravishda yangilab borishga majbur. Bu esa axborot makonida sifatli, tezkor va ishonchli kontentga bo‘lgan ehtiyojning doimiy ortib borayotganidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mamatqulov A., “Ommaviy axborot vositalari nazariyasi”, Toshkent, 2020.
2. Castells, M. (2009). Communication Power. Oxford University Press.
3. McQuail, D. (2010). Mass Communication Theory. Sage Publications.
4. Pavlik, J. V. (2013). Media in the Digital Age. Columbia University Press.
5. Ilmiybaza.uz – "Rasmiy axborot tayyorlash va tarqatish bo‘yicha ilmiy-uslubiy qo‘llanma". Havola: <https://ilmiybaza.uz/document/rasmiy-axborot-tayyorlash>.
6. Milliycha.uz – "Axborot agentliklari – Milliylik-millat ko‘zgusi". Havola: <https://milliycha.uz/axborot-agentliklari>
7. Associated Press: https://en.wikipedia.org/wiki/Associated_Press , Smithsonian Magazine – How the Associated Press Got Its Start 175 Years Ago: <https://www.smithsonianmag.com/arts-culture/associated-press-turns-175-years-old-180977462/>